Didaktik o'yin turlari va ularni olib borishga doir talablar

G'aybullayeva Dilnoza Abdurashid qizi

Abdulla Qodiriy nomidagi Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi.

Annotatsiya : Ushbu maqolaning mazmuni bo'lajak tarbiyachilarning qiziqish va faollik darajasini oshiradigan didaktik o'yinlarga bag'ishlangan. O'yin usullari o'quv materialini mustahkam o'zlashtirishga yordam beradi, dunyoqarashni kengaytiradi,ijodiy fikrlashni , badiiy tasavvurni, xotirani , kuzatishni, sezgini rivojlantiradi.

Kalit so'zlar : o'yin usullari, ijodiy fikrlash, badiiy tasavvur, tarbiyachi shaxsi, duntoqarash, sezgi, qiziqish, o'quv materiallari, didaktik o'yinlar.

Types of didactic games and requirements for their conduct

Gaybullayeva Dilnoza Abdurashid kizi

Student of Jizzakh State Pedagogical University named after Abdullah Qadiri

Abstract: The content of this article is devoted to didactik games which increase the interest andactivity level of future music teachers. Playful methods contribute to the long-term learning of educational material, broaden the outlook , develop creative thinking, artistic imagination, memory, observation and intuition.

Keywords: game methods,creative thinking, artistic imagination, music teacher, autlook, intuition , interest, educational material, didactik games.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev: Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishga o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz , deya qayd qilib o'tgan .Bu o'z navbatida pedagoglarning jahon miqyosidagi yutuqlarini ilmiy asoslangan inovatsiyalarni tadbiq etgan holda pedagogik jarayonni ilmiy asosda tashkil etish va boshqarish , shuningdek pedagogik jarayonlarning samaradorligini taminlashga xizmat qiluvchi didaktik o'yinlardan foydalanish bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O'yinlar Maktabgacha ta'lim va maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi.Didaktik o'yinlarning asosiy turlari – intelektual yani aqliy va harakatli hamda aralash o' yinlardan iborat . Bu o'yinlar bolalardan aqliy, jismoniy, axloqiy, psixalogik, estetik, badiiy tadbirkorlik, mehnat va boshqa ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi . Didaktik o'yinlar nazariy , amaliy, rolli, ishchanlik va boshqa yo'nalishlar bo'yicha turlarga ajratiladi. Didaktik o'yin ta'lim beruvchi usul bo'lib , bu usul muayyan ta'limiy maqsadlarga erishishga yani o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga , mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinlarning ham boshqa o'yinlar kabi , qoidalari bo'ladi. O'yin qoidalari o'yin ichiga yani topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i o'yin qanday yo'nalishida borishi va qanday o'ynalishi yani kim g'olibligini aniqlashdan iborat. Bunda tarbiyachi masulyatni o'z boyniga oladi va o'yinga rahbarlik qiladi. Har bir didaktik o'yinlar o'z navbatida quyidagi komtentlardan tuziladi: o'yin maqsadi , qoidalari, jihozi, mazmuni va natijasi. Ilg'or texnalogiyalarning keng o'zlashtirilishi, uzliksiz ta'limni fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyalashuvi, tarbiyalanuvchilarning pedagogik qobiliyatlari va imkoniyatlariga muvofiq ravishda maktab ta'limga tabaqalashtirilgan yondashuvning joriy etilishi hamda maktabgacha ta'lim berishning ilg'or pedagogik texnologiyalari va zamonaviy o'quv – uslubiy majmualarning yaratilishi pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish tizimini takomillashtirishda bo'lajak

maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishga asos bo'lmoqda. Maktabgacha ta'limi va tarbiya jarayonida asosan talabalarga maktabgacha ta'lim va tarbiya olishning motivlarini ularning turli yo'nalishdagi qobilyat va qiziqishlarini oshiradigan tarbiyachi , o'qituvchi kasbiga moyilliklarini ko'rsatadigan didaktik o'yinlardan foydalaniladi.Hozirgi kunda maktabgacha ta'lim pedagoglariga juda ko'p qulayliklar yaratilmoqda. Jumladan, kopyuter vositasidagi didaktik o'yinlardan foydalanish alohida o'ringa ega bo'lib bormoqda . Umumiy o'yinlar nazariyasiga ko'ra mavjud barcha o'yin turlarini tasniflashda ularni funksional mavzuli konstruktiv, didaktik , sport va harbiy o'yinlarga ishlatiladi. Bularning orasida didaktik o'yinlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ta'lim va tarbiya vazifalarini amalga oshirish imkoniyati bilan alohida o'rin tutadi.

O'yinlar maktabgacha ta'lim va maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyat shakllari hisoblanadi. Bu esa pedagogika oliy o'quv yurtlarida bo'lajak tarbiyachi , o'qituvchilarni va olimlar tomonidan shu yosh davrdagi o'yinlarning maktabgacha ta'lim va tarbiyaviy ahamiyatini o'rganish va yanada oshirish bo'yicha tadqiqot olib borishiga asos bo'ladi. Natijada oldingi asrning 60- yillari boshida AQSH so'ngra boshqa G'arb mamlakatlarida ishchanlik o'yinlari qo'llanila boshlandi. Didaktik o'yinlardan hisoblangan ishchanlik o'yinlari eng asosiy samarali va tejamli ta'lim metodlaridan iborat hisoblanadi. Ishchanlik o'yini orqali ko'pchilik tadqiqotchilar , olimlar ishlar olib borishgan. Didaktik o'yin usullaridan hisoblangan aqliy hujum usuli ham bor, bu usul juda foydali bo' lib bolarning aqlini charxlaydi, xotirasini yaxshilaydi va yana bir muxim jihati yangi g'oyalarni to'g'ri yo'lga boshlashda yordam beradi. Didaktik o'yinlarning yana bir turi bo'lgan aqliy hujum usulini birinchi marta 1939- yilda A.F. Osborn qo'lagan. Bu usulni g'oyalar banking deb ham nomlagan . U muammolarni quyidagicha yeshishga asoslanadi: - muammoli vaziyat yaratish; - g'oyalarni shaklantirish ; - eng yaxshi g'oyalarni tekshirish, baholash va tanlash. Ishchanlik o'yin darsi - dars mavzusi bo'yicha masalalarni hal etish jarayonida tarbiyalanuvchilarning faol ishtirik etishini ta'minlash orqali yangi bilimlarni o'zlashtirish mashqi. Rolli o'yin usullari - dars mavzusi bo'yicha masalalarni o'rganishda tarbiyachilarga oldindan ma'lum rollarni taqsimlash va dars jarayonida shu ro'lni bajarishlarini tashkil etish asosida bilimlarni mustahkamlash darsi. Kompyuter darsi – tegishli o'quv fani bo'yicha dars mavzusiga doir kompyuter materiallari (multimediya, virtual o'quv kursi va shu kabilar) asosida o'tiladigan dars. Teatrlashtirilgan o'yin darsi- dars mavzusi bilan bog'liq sahna ko'rinishlari tashkil etish orqali dars mavzusi bo'yicha chuqur , aniq malumotlar berish darsi. O'yin darsi – dars mavzusiga mos o'yin orqali tarbiyachilarning bilimlarini o'zlashtirishlarini tashkil etish darsi. Integral (integratsiyalangan) dars- bir necha fanlarga doir integratsiyalash uchun qulay bo'lgan mavzular bo'yicha tashkil qilingan dars bo'lib , tarbiyalanuvchilarning turli fanlarga va sohalarga qiziqishlarini orttirib maktabgacha ta'lim jarayonidagi faolliklarni taminlaydi. Bunday darslar bolalarga fanlararo bog'liqlikni o'rgatish orqali ularda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ijodiy tafakkurlarni rivojlantishga xizmat qiladi.

Tarbiyachi- pedagog didaktik o'yinli mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik talablarga rioya qilishi talab etiladi. 1. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar dasturida qayd etilgan mavzularning ta'limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsad hamda vazifalarni hal qilishga qaratilgan bo'lishi; 2. Jamiyatdagi va kundalik hayotdagi muhim muammolarga bag'ishlanib , ular o'yin davomida hal qilishi; 3. Barkamol shaxsni maktab ta'limiga tayyorlash tamoyillariga va sharqona odob – axloq normalariga mos kelishi; 4. O'yin tuzilishi jihatidan mantiqiy ketma- ketlikda bo'lishi; 5. Mashg'ulotlar davomida ta'limiy didaktik prinsiplarga amal qilinishi va eng kam vaqt sarflanishiga erishish kerak. Didaktik o'yinli mashg'ulotlar orasida konfrensiya mashg'ulotlari ham muhim o'rin tutadi. Konfrensiya mashg'ulotlari talabalarning bilish faoliyatini faollashtirishda ilmiy dunyoqarashni kengaytishda, qo'shimcha va mahalliy materiallar bilan

tanishtirishda, ilmiy- ommabop adabiyotlar bilan mustaqil ishlash ko'nikma va malakalarni orttirish, mustaqil hayotga ongli tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Didaktik o'yin – ta'lim beruvchi usul bo'lib , bu usul muayyan ta'limiy maqsadga erishishga yani o'tilgan o'quv materiallarini aniqlashga, mustahkamlashga va uni chuqurlashtirishga qaratilgan bo'ladi. Har bir didaktik o'yinlarni o'tkazishda muayyan bir vazifa mqsad qilib olinadi . Didaktik topshiriq maktabgacha ta'lim tashkilotlarida dars jarayoniga qo'yiladigan umumiy maqsadining bir qismini tashkil qiladi. Har bir didaktik o'yinlarning ham, har qanday o'yindagi singari qoidalari bo'ladi.O'sha qoidalarga amal qilinmasa o'yinning o'yin sifatidagi ahamiyatli binobarin o'yinning ta'lim tarbiyaviy va psixalogik ahamyati yo'qoladi. O'yin qoidalari o'yin ichiga yani topshirig'iga kiritiladi. O'yin topshirig'i tarbiyachining bolalarga o'yinning qanday o'ynalishini, kim g'olibligini aniqlashdan iborat. Didaktik o'yinlar tashkilotchilari ular uchun ishlatiladigan har bir material bilan ishlash, ulardan tegishli didaktik vositalarni tayyorlash hamda xavfsizlikni taminlash texnalogiyalarini puxta bilishlari va rioya qilishlari lozim. Chunki didaktik vositalarning sifting, ko'zda tutilgan maqsadlarga mosligi , qulayligi va ulardan to'g'ri foydalanish maktabgacha ta'lim tashkilotlaridagi darslarnining samaradorligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday qilib , yuqoridagilardan quyidagi xulosalar chiqarishimiz mumkinki, maktabgacha ta'limi tizimida didaktik o'yinlardan foydalanish bo'lg'usi tarbiyachi o'qituvchilarning muloqot qilish ko'nikma va malakalarini , o'zaro yordam ko'rsatish ko'nikmalarini rivojlantiradi va bolalarning bilim salohiyatini hamda saviyasini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Zunnunov A., Maxkamov U. , Didaktika (Ta'lim nazariyasi) . O.O'Yu uchun qo'llanma . T., Sharq, 2006y.
2. Atayeva N., Salayeva M., Hasanov S . Umumiy pedagogika , T., 2013y.
3. Mahmudov A.X. Uzluksiz ta'lim jarayoniga kompetentlik yondashuvini joriy qilishning didaktik asosalari / Uzluksiz ta'lim . 2012y. 8- 12 betlar.
4. Sodiqova Sh. A. Maktabgacha pedagogika T. Tafakkur bo'stoni . 2013y. 222- bet.
5. Avliyaqulov N , Musayeva N. Pedagogik texnalogiyalar. T. 2008y.
6. Tolipov O'. No'monova N. Ta'lim - tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnalogiyalar. G'G' Xalq ta'limi.- Tashkent, 2002. – N 3.